

O'ZBEKISTONDA TRANSPORT TIZIMINING RIVOJLANGANLIK DARAJASI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va
Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi
G'aybullayeva Nargiza*

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida transport tizimining rivojlanganlik darajasi va uning hududiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqolada transport infratuzilmasining holati, asosiy transport turlarining (temir yo'l, avtomobil, havo va quvur transporti) hududiy taqsimlanishi va ularning iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, transport tizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari o'rganiladi.

Maqolada O'zbekistonning turli hududlarida transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, transport xizmatlarining sifati va aholining transportga bo'lgan talabi tahlil etiladi. Tog'li va cho'l hududlarida transport aloqalarini ta'minlash masalalari, transport koridorlarining hududiy tuzilishi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholanadi. Transport sohasida raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va logistika xizmatlarini rivojlantirishning hududiy jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, transport tizimi, transport infratuzilmasi, hududiy xususiyatlar, transport aloqalari, transport koridorlari, transport xizmatlari, logistika, rivojlanish, hududiy nomutanosibliklar.

KIRISH: O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi transport koridorlari uchun qulay sharoit yaratadi. Iqtisodiyotning o'sishi transport xizmatlariga talabni oshiradi. Aholi sonining o'sishi va shaharlashuv esa transport tizimiga yuklamani oshirishga sabab bo'ladi. Transport infratuzilmasiga investitsiyalar transport tizimining rivojlanishini ta'minlaydi. Transport sohasini tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati transport tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. O'zbekiston transport tizimi temir yo'llar, avtomobil yo'llari, havo yo'llari va quvur transportidan iborat bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining muhim qismi hisoblanadi. Transport tizimining rivojlanganlik darajasi va hududiy xususiyatlari O'zbekistonning geografik joylashuvi, iqtisodiyoti va demografiyasi bilan bog'liq.

Asosiy qism:

O'zbekistonda transport sohasi 1990 yilarda endi rivojlanish pallasida bo'lgan, O'zbekistonning ilk mustaqillik yillarida bu ko'rsatkichlar saqlanib turdan. 2000-yillardan boshlab havo transportida, transportning boshqa sohalarida tub islohatlar o'tkazila boshlangan. Ayniqsa temir-yo'l sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi

yangi [Toshkent-Samarqand tezyurar temir yo‘li](#) qurilishini misol qilib olish mumkin.

Temir yo‘l sohasi

2019-yilgi malumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda jami bo‘lim temir yo‘llarning umumiy uzunligi 7400 km dan ortiqni tashkil etadi va bu uzunlikdagi temir yo‘llarning 1300 kmga yaqin qismi elektrlashtirilgan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ko‘p tarmoqli temir yo‘l lineasini deyarli barcha tarmoqlari Toshkent shahri bilan bog‘langan. O‘zbekiston temir yo‘l tizimida O‘rta Osiyodagi qo‘shni davlatlar bilan temir yo‘l aloqa yo‘nalishlari bog‘langan. Jumladan, Qozoqiston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Tojikiston, Turkmaniston bilan temir yo‘l aloqa linealari mavjud.

O‘zbekiston temir-yo‘l linealari tarixidagi katta voqealardan biri [Toshkent-Samarqand tezyurar temir yo‘li](#) qurilishi va ochilishi bo‘lgan. Mazkur tezyurar temir yo‘l lineasi 2011-yili foydalanishga topshirilgan. [O‘zbekiston temir yo‘llari](#) aksiyadorlik kompaniyasi asosiy kompaniya hisoblanadi. Yevropaning ko‘pgina shaharlari bilan temir yo‘l aloqalari mavjud, masalan, Moskva, Kiyev, Ufa, Chelyabinsk, Penza, San Peterburg. Qozoqistonning Olmota shahri orqali Xitoy Xalq Respublikasiga ham o‘tish imkoni mavjud.^[1]

Toshkent shahrida joylashgan Toshkent metrosi O‘rta osiyodagi yagona metro hisoblanadi. U jami bo‘lib 50 ta bekat mavjud.

Avtomobil yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasi hududida 2005-yilgi malumotlarga muvofiq 84000 km yo‘llar mavjud ularning 72 km qismiga yangi tekis asfalt yotqizilgan. Bu yo‘llarning asosiy qismi Toshkent shahri tashqarisida va viloyatlarda hisoblanadi. Qamchiq dovoni, avtomobil yo‘llari miqiyosida juda katta ahamiyatga ega, chunki u Toshketni [Farg‘ona vodiysi](#) bilan bog‘laydi. Dovonining balandligi 3000 kmga boradi va unda yengil va og‘ir yuk avtomobillari bemaolol yura oladi.

Toshkent shahrini Qashqadaryo va Surxondaryo bilan bog‘lovchi muhim yo‘l bo‘limlaridan hisonlangan [avtomobil yo‘li](#) 2006-yilda ta‘mirdan chiqarilgan va yo‘lning eniga kengaytirilgan. Toshkent shahri o‘rab turadigan Toshkent katta halqa yo‘lining uzunligi 70 kmni tashkil etadi va u doimiy tarzda ta‘mirlanib turadi. Toshkent va Samarqandni bog‘lab turadigan Toshkent-Samarqand katta avtomobil yo‘li 4 bo‘lakli tekis yo‘llardan biri hisoblanadi. Uning uzunligi 300 km ni tashkil etadi.

Xulosa: O‘zbekiston transport tizimi mamla kat iqtisodiyotining muhim qismi bo‘lib, hududiy xususiyatlarga ega. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlarini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekiston o‘z transport tizimini yanada samarali va raqobatbardosh qila oladi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, Y. (2020). O‘zbekiston transport tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (3), 12-25.

2. Karimov, I. (2018). O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida transport logistikasining roli. *Biznes-ekspert*, (4), 34-45.
3. Rahimov, O. (2021). O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirish istiqbollari. *Markaziy Osiyo iqtisodiyoti*, (2), 56-67.
4. Mirzaev, M.N., & Xodjaev, J.X. (2022). Transport infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqaviy jihatlari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (1), 78-85.

